



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA HUQUQ BILAN BOG‘LIQ TUSHUNCHALAR TAHLILI

Mirzoahmedov Muxtor Mavlonovich

Akademik Bobojon G‘ofurov nomidagi

Xo‘jand davlat universiteti DTM dotsenti,

filologiya fanlari nomzodi (Tojikiston Respublikasi)

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida uchraydigan huquqqa oid terminlarning mazmuni, ularning ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, huquqiy terminlarning bolalarning nutq madaniyatini, huquqiy tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan

Kalit so‘zlar: huquq, huquqiy termin, ona tili, boshlang‘ich ta‘lim, fuqarolik tarbiyasi, darslik.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirib borish qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylilikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda so‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019 yildagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” Farmonida “yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;” asosiy vazifa qilib belgilab berilgan bo‘lib, ushbu me‘yoriy hujjat huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatni qurishni o‘z maqsadi qilib olgan jamiyatimiz uchun huquqiy tarbiyaning asosini belgilab beruvchi asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat har qanday jamiyatda yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasi doimo dolzarb muammo sifatida e‘tirof etiladi. Bu jarayonda ta‘lim tizimining, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichining ahamiyati beqiyosdir. Ona tili darsliklari esa bolalarning dunyoqarashi, tafakkuri, nutq madaniyati va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, darslik matnlarida huquqqa oid terminlarning qo‘llanilishi bolalarda huquqiy ongni erta yoshdan boshlab shakllantirishga yordam beradi. Huquqqa oid terminlar – bu qonun, fuqarolik, huquq, burch, majburiyat, ma’suliyat kabi so‘z va birikmalar bo‘lib, ular jamiyatdagi tartib, qonun va inson huquqlariga oid tushunchalarni ifodalaydi. Ushbu terminlarning mazmuni o‘quvchilariga soddalashtirilgan, ularning yosh xususiyatiga mos shaklda beriladi. “Har bir bola o‘qish huquqiga ega”, “Tartibli bola sinfda burchini bajaradi”, “Biz O‘zbekiston fuqarolarimiz” kabi. Bu kabi iboralar o‘quvchilar huquqiy tushunchalarni amaliy hayot bilan bog‘lab o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinf darsliklarida huquqiy terminlarning qo‘llanishi yuzasidan 1-4-sinf uchun mo‘ljallangan ona tili darsliklari yuzasidan olib borilgan tahlillarga ko‘ra:

1-2 sinf darsliklarida “bayroq”, “gerb”, “madhiya”, “Vatan”, “tartib” kabi terminlar ko‘p uchraydi;

3-4-sinf darsliklarida esa “huquq”, “fuqarolik”, “mas’uliyat”, “burch”, “qonun” kabi so‘zlar qo‘llanilgan. Bu jarayon bosqichma-bosqich murakkablashib boradi va har bir sinfda o‘quvchilarning tushunchasi kengayadi.

3-sinfda “Har kim qonunlarga bo‘ysunishi kerak” kabi gaplar orqali *qonun* tushunchasi kiritiladi.

4-sinfda esa “Mas’uliyatli inson o‘z ishini vijdonan bajaradi” kabi misollar orqali *javobgarlik* va *burch* tushunchalari mustahkamlanadi.

Huquqqa oid terminlar leksik jihatdan ko‘proq abstrakt tushunchalarni ifodalaydi. Masalan: qonun, huquq, burch, mas’uliyat. Ularning ma’nosi ko‘p hollarda kontekst orqali tushuntiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu terminlarning sinonimik va antonimik juftliklari (masalan, “huquq – burch”, “tartib – tartibsizlik”) orqali ma’nosini chuqurlashtirish muhim didaktik usul hisoblanadi. Ularning ma’nosi ko‘pincha metaforik yoki konkret vaziyatlar orqali ochiladi. Shuning uchun darsliklarda ularni o‘quvchilarga tushunarli qilib berish uchun kontekstual izohlar, soddalashtirilgan misollar va rasmlar bilan mustahkamlash muhimdir. Shuningdek, huquqiy terminlar o‘zbek tilining terminologik tizimida ham muhim o‘rin tutadi. Ular milliy qonunchilik, davlat boshqaruvi, fuqarolik tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida huquqqa oid terminlarning mavjudligi o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda muhim omildir. Bunday terminlar orqali bolalarda fuqarolik mas’uliyati, qonunlarga hurmat, tartiblilik, adolat va halollik kabi ijobiy sifatlar rivojlanadi. Shu bois, darslik mualliflari huquqiy terminlarni yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlashi, ularni amaliy misollar bilan boyitishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5618 09.01.2019-lex.uz

2. Farber I.E. Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir shakli sifatida. - M., 1963 yil.

3. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya. Novyy etap evolyutsiy. M. Pedagogika. 1997

4. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik I qism / - Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. - 96 b

5. Kuranov. S Ona tili: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. II qism. / - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. - 88 b.